

47. Uch xonali sonlarni taqqoslash

Yondosh mavzu:
dasturchilar

Uch xonali sonlar
yuzliklar, o'nliklar, birliklar



Cho'pni tenglik to'g'ri
bo'ladigan qilib qayta
qo'ying

$$26 + 15 = 13$$

1. Sherzod sonlarni yuzliklar, o'nliklar va birliklarga ajratuvchi dastur yaratdi. Dasturning to'g'ri ishlayotganligini tekshiring.

Sonlar	Yuzliklar	O'nliklar	Birliklar
532	5	3	2
530	5	3	0
402	4	0	2
21	2	1	0

Ikkita uch xonali sonni taqqoslaganda,
avval ularni yuzliklar soni bo'yicha taqqoslanadi;
agar yuzliklar soni bir xil bo'lsa, unda o'nliklar
soni bo'yicha;
agar yuzlik va o'nliklar soni teng bo'lsa,
u holda birliklar soni bo'yicha taqqoslanadi.

$$327 < 514$$

$$489 > 432$$

$$460 < 468$$

2. Sonlarni taqqoslang.

$$679 \square 421$$

$$834 \square 856$$

$$692 \square 695$$

$$790 \square 921$$

$$178 \square 141$$

$$326 \square 320$$

3. Savollarga javob bering. O'z javobingizni tushuntirib bering.

a) Sherzod 576 qator kod yozdi. Aziz shu vaqt ichida 372 qator kod yozdi. Kim ko'proq yozgan?



b) Elektron jurnalda 280 nafar 1-sinf o'quvchilari va 285 nafar 2-sinf o'quvchilari yozilgan. Qaysi sinf o'quvchilari elektron jurnalda ko'proq yozilgan?

d) Diskning A tomonida 230 ta o'yin, B tomonida esa 225 ta o'yin yozilgan. Qaysi tomonda ko'proq o'yin yozilgan?

47. Uch xonali sonlarni taqqoslash



4. Robot chizmada chizilgan yo'ldan o'tishi kerak. Chizma bo'yicha robot bosib o'tgan yo'lning umumiy uzunligini aniqlang.



5. Anvar kompyuter o'yinida tanga yig'adi. Dushanba kuni u masalalarni yechgani uchun 26 tanga va boshqotirmalarni yechgani uchun 18 tanga oldi, seshanba kuni esa 14 tanga masalalar uchun va 25 tanga boshqotirmalar uchun oldi. Anvar jami nechta tanga olgan? Qaysi kun u ko'p va qancha ko'p tanga oldi?



6. Kompyuterni buzadigan yoki boshqa odamlarning ma'lumotlarini o'g'iraydigan zararli dasturlarni yozadigan dasturchi qanday ataladi? Hisoblang va bilib oling.

A $67 + 32$

K $91 - 27$

E $75 - 29$

R $58 + 18$

U $66 + 18$

X $37 - 19$

18	99	64	46	76



7. Sonlarni taqqoslang.

478 ☐ 487

711 ☐ 117

653 ☐ 253

329 ☐ 239

640 ☐ 599

481 ☐ 485



8. Robot 43 metr to'g'riga yurdi, to'xtadi, keyin yana 28 metr yurdi. Keyin robot orqaga burilib, avvaliga 37 metr, keyin yana 35 metr yurdi. Uning yo'li qaysi yo'nalishda (oldinga yoki orqaga) uzunroq edi? Qanchaga uzun bo'ldi?